



## TIL BIRLIKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

**Jadgarova Farida Baxtiyorovna**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti o'zga tili guruhlarda o'zbek tili 2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7592966>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023

Online: 31<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*Til, aloqa, fonema, morfema, nutq, lison, jamiyat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada biz til birliklarining o'ziga xususiyati, til murakkab ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ma'lumot bermoqchimiz.*

Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonda ma'lum bir insonlar tomonidan emas, balki butun jamiyat va jamiyatning a'zolari tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy - iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmasdan, balki butn jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsuli bo'lib, jamiyatdagi tabaqa vakkillari uchun xizmat qilgan. Til faqat bir sinfga yoki bir guruhga xizmat qilmagan va qilishi ham mumkin emas. Butun jamiyatga xizmat qiladigan narsa bu – til.

Fikr ifodalashning vositasi tildir. Tafakkur va tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikrning ifodasi, o'z navbatida fikr til orqali yuzaga keladi. Kishilik jamiyatida til ham tafakkur ham mehnat jarayonida shakllangan.

Til alohida tizim sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Aloqa vazifasi.
2. Tilning hissiy ta'sir vazifasi.
3. Tilning to'plash vazifasi.

Tilning aloqa vazifasi. Tilning jamiyatda aloqa munosabatiga xizmat qilishdan iborat. Tilning bu vazifasi asosan ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Tilning aloqa munosabati muhim vosita sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan muntazam bog'liq. Insonlar o'z sezgi va ruhiy kechinmalarini, fikrini, ifoda qilishda bir – birlariga ta'sir o'tkazadi.

Tilning hissiy ta'siri vazifasi. Tilning muayyan ma'lumotni ifoda etib tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi uning hissiy ta'sir vazifasi sanaladi. Hissiy ta'sirning asosini xabar, sezgi va hayajon tashkil qiladi.

Tilning to'plash vazifasi. Til aloqa – munosabat vositasi hissiy ta'sir ifoda bo'lib qolmaygina, to'plash vazifasini ham bajaruvchi muhim manba hisoblanadi. Millatlararo aloqa munosabati, to'plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi til hisoblanadi.

Muayyan birliklarning tizimi til hisoblanadi. Til birliklariga fonema, morfema, so'z, gap bir butun holda mantiqiy tushunchalar (hissiy tuyg'u, idrok, tafakkur) bilan chambarchas



bog'liqdir. Til birliklarining o'ziga xos tabiati professor Shavkat Raxmatullayevning "Til qurulishining asosiy birliklari" qo'llanmasida izchil bayon etilgan: "Til tabiiy yo'sinda vujudga kelgan murakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murakkab ijtimoiy hodisani o'rganadi va o'rgatadi. Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala til so'zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhim aloqa aralashuv quroli sanaladi. Bu ta'rif lingvistik ta'rif emas, falsafiy ta'rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa til so'zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mavjudligi ko'rinadi:

1) Ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi.

2) Ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo'yiladigan holatigina tushuniladi. Demak til deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qisimni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. Til so'zini bunday ikki mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan til so'zini butunning nomi sifatida saqlab nutqqa zidlanuvchi hodisani lison deb atash mumkin.

Kishining miyasida, miyaning til xotirasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari lison deyiladi.

Nutq – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish jarayoni va shu jarayonning hosilasi. Demak, til hodisalariga ikki nuqtai nazardan lison va nutq nuqtai nazaridan baho beriladi. Shu asosda til birliklari va nutqiy birliklar deb farqlanadi.

Tilning kishi miyasidagi til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalardan iborat bo'yluk lison

Nutq esa ana shu bo'ylukdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Lisonga mansub, ya'ni til xotirasida mavjud hodisalarga lisoniy birliklar deyiladi: lisoniy birliklarning nutqda moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birliklar deyiladi."

Inson tilining asosini tovush tashkil qiladi. Tovushlar til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurulish birligi bo'lib xizmat qiladi. Til birliklarining birlamchi ifoda jihati tovush deyiladi. Til tovushi lisoniy va nutqiy birlik sifatida yuzaga keladi. Eng kichik birlik – fonema. Til egalarining ma'lum tovush haqidagi muayyan umumiy tasavvuri fonemadir. Fonema so'zlovchi ongida o'z aksini farqlovchi belgilar asosida vujudga kelgan.

O'zbek tilida so'zlovchi shaxs hozirgi o'zbek tilidagi 30 ta tovush fonema haqida ma'lumot bor. Bu ma'lumat insonlar ongida til o'rganish, o'zgarlar va o'zining nutqini kuzatish natijasi sifatida namayon bo'ladi. Til birliklari nutqiy birliklarga nisbatan, miqdoran cheklangan bo'lsa da ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirasida saqlanish mexanizmini bilish lozim bo'ladi.

Til birligi bo'lgan fonema tovush ko'rinishlarining umumiy andozasi bo'lib nutq a'zosi yordamida vujudga keladi. Cheksiz tovushlarning umumlashmalari qatori sifatida ongda yashaydi.

Tovush bilan fonemaning farqi shundan iboratki, nutq a`zolarining harakati va holatidan hosil bo`luvchi eng kichik nutq birligi tovush deyiladi. So`zning ma`noli qismlarini shakllantirish va farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik til birligi esa fonemdir.

Tilning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'satish uchun xizmat qiluvchi birligi – leksema. Til birligi sifatida har bir leksema mazmunan mundarijaga ham ega. Leksemalarning mazmun mundarijasi borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalaydigan tushunchalarni anglatadi.



Morfema leksemadan farqli ravshda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan shakl mazmunining birligidan iborat bo'lgan kichik til birligidir. Morfema ham tashqi ( moddiy )va ichki ( ma'no vazifasi) jihat yaxlitligidan iborat.

Til til tizimi fonemalar tizimi bosqichi bilan morfemalar tizimi bosqichi oralig'da ajratish uchun asos yo'q ekanligi fonemalar termin tarkibida morfema qismi keng ma'no bilan ishlatilishi morfema bilan leksema birgalikda tushuniladi. Til o'ta murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, til birliklari va ularni ishlatish qoidalari uning asosini tashkil qiladi.

Til birliklari bizga juda zarur. Har birining o'z vazifasi bor. Masalan fonemani oladigan bo'lsak: fonema bir qancha tivushlar orqali vujudga keladi. Fonemalarni sanash mumkin ular cheksiz bo'ladi. Fonemalar bir necha birliklarni bir – biriga zidlash orqali aniqlanadi.

Morfemani ikki guruhga bo'lib o'rganamiz: Yetakchi va ko'makchi morfema. Asosiy ma'noni ifodalaydigan asos qismiga yetakchi morfema deymiz. Bu qismi hech qanday ma'noli qismlarga ajralmaydi. Mustaqil qo'llana olmaydigan asosga qo'shilib yangi ma'no yuklaydigan qismiga ko'makchi morfema deyiladi.

Leksemani biz leksikologiya bo'limida o'rganamiz. O'zi so'zlarni ikki hil ma'nosi bor leksik va grammatik. Leksik ma'nosi bu atash ma'nosi, ya'ni *kitoblarni* so'zini oladigan bo'lsak bu bizga bilim beradigan bizning tafakkurimizning rivojlanishi uchun xizmat qiladigan narsa bu kitob. Endi shu so'zning grammatik ma'nosiga qaraydigan bo'lsak: kitob ot so'z turkumi nima? so'rog'iga javob bo'ladi, ko'plik shaklda turibdi, tushum kelishigini olgan.

### References:

1. "Tilshunoslikka kirish" M.T. Irisqulov Toshkent 2009 "Yangi asr avlodi"
2. "Til quruluşining asosiy birliklari" SH. Raxmatullayev Toshkent 2002.
3. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z.Yunusova, M. Abuzalova Toshkent 2009.